

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

**АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ**

**AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY**



**ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL**

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2026



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyeich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n, katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n, professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 911 sahifa.
E'lon qilishga 2026-yil 31-martda ruxsat berildi.



**“AGROBIZNES, FAN VA
TEKNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNALI**

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

- 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
- 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
- 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
- 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
- 06.01.06 – Sabzavotchilik
- 06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
- 06.01.08 – O‘simlikshunoslik
- 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
- 06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
- 06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
- 06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
- 06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

SABIROV XASAN NUSRATOVICH, YUNUSOV BEKZOD XAYRUBLOYEVICH O'zbekiston bank tizimida yashil kreditlashni rivojlantirishning institutsional asoslari.....	13
SAPAYEV MAXSUDBEK KARIMOVICH Davlat budjeti ijrosini ta'minlashda soliq nazoratini amalga oshirish yo'nalishlari.....	20
ALLAYAROVA MASTURA KUDRATULLAYEVNA O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining shakllanish asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	26
АКАБИРОВА ДИЛОРО НИГМАТОВНА, АЗИМБОЕВА ШАХОДАТ ХАМДАМ ҚИЗИ Экономическая оценка внедрения агротехнологий (Agtech) в сельское хозяйство Республики Узбекистан (на примере Хорезмской области).....	34
ASHUROVA MAFTUNA ORTIQ QIZI Xizmatlar sohasining tarmoqlar bo'yicha tarkibiy tuzilishini shakllantirish jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	39
XO'JAMURODOVA ODINAXON KOMILJON QIZI Xususiy sog'liqni saqlash tizimida boshqaruvni takomillashtirish yo'nalishlari.....	46
ULUG'BEKOV SARDORBEK ULUG'BEKOVICH Inson kapitali va kreativ qatlam kategoriyalarining konseptual asoslari.....	54
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH Raqamli bank xizmatlari orqali moliyaviy samaradorlikni oshirishga doir xorijiy tajribalar tahlili.....	62
ASHUROVA MAFTUNA ORTIQ QIZI Xizmatlar sohasida investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish xorij tajribasi va uni mamlakatimizda qo'llash masalalari.....	69
MULLAYEVA MEXRANGIZ AXTAM QIZI Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish omillari va rivojlanish istiqbollari.....	75
ISMOILOVA NIGORAXON MAHMUDJON QIZI, IBROXIMOV MUHAMMADSODIQ XOKIM O'G'LI O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 2021–2025 yillardagi dinamikasi: statistik tahlil va iqtisodiy o'sish tendensiyalari.....	83
BARATOV SAMARIDDIN ABDUKAHAROVICH Inson kapitali rivojlanishini baholashga ta'siri va uslubiy yondashuvlar bo'yicha ko'rsatkichlari.....	93

SHODMONQULOV KAMOLIDDIN MURODILLAYEVICH

Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish orqali hududiy eksport salohiyatini oshirish yo'llari.....100

XOLMIRZAYEV ULUG'BEK ABDULAZIZOVICH

Davlat-xususiy sheriklik modellari, shakllari va mexanizmlari tasnifi.....108

JABBAROV NURBEK ATANAZAROVICH

Sanoat sohasida energiya resurslaridan foydalanishda kvantil regressiya (quantile regression) modelini qo'llash.....124

SULTONOV SHODIYOR ABDUHALILOVICH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy ahamiyati.....131

SHODMONQULOV KAMOLIDDIN MURODILLAYEVICH, SHOMURODOVA MADINA BAHROM QIZI

Tovar sotishda marketing faoliyatining nazariy-uslubiy asoslari.....140

YAKUBOV SANJARBEK FOZILBEKOVICH

Lalmi yerlarda indeksli sug'urta tizimini joriy etishning nazariy-ilmiy asoslari.....149

QO'ZIBOYEV BEHZOD HAMIDOVICH

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning hozirgi holati va istiqbollari.....157

SULTONOV SHODIYOR ABDUHALILOVICH

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion yechimlar va kichik biznesning raqobatbardoshligi.....166

ERGASHEV OLLOYOR FURQAT O'G'LI

Ichki auditning institutsional mohiyati va uning korporativ boshqaruv tizimidagi o'rni.....175

TAG'OYEV FERUZ YORQULOVICH

Hududlarda sanoat korxonalari faoliyatini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi va tavsifi.....187

DO'SIMOV SHOHRUH SHAMURATOVICH

Mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili (Xorazm viloyati misolida).....196

RAHIMBOYEV MUXTORBEK IKROM O'G'LI

Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi bandligi va daromadlari dinamikasi.....203

XAMIDJONOV ABDULAZIZ XASANOVICH, UMARALIYEVA BAXTILAXON RAXMONALI-QIZI

Interaktiv marketingning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.....211

BEKJANOV DILMURAD YO'LDASHOVICH

Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat ta'minot zanjirini optimal tartibga solishning metodologik asoslari.....219

ABDULLAYEV ASLIDDIN NABI O'G'LI

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida qurilish sanoati ahamiyati.....226

AXMEDOV NU'MONJON MUHAMMADUMAROVICH

Soliq nazorati tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati.....234

JO'RAYEV FARHOD MAMADIYOVICH, PIRMATOVA DILNOZA ORTIQBOYEVNA

Mamlakatimizda gilos yetishtirish va eksportni rivojlantirishning strategik jihatlari.....240

YUSUPDJANOVA NARGIZA UTKIROVNA

Xususiy uy-joy fondidan foydalanish va uni boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....245

AXMEDOVA NILUFAR SHUXRATOVNA

Kichik va yirik biznes subyektlari integratsiyasi samaradorligini oshirishning ilg'or xorij tajribalari va ulardan foydalanish istiqbollari.....254

SAYITBAYEV SHERMIRZA DATKAMIRZAEVICH

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimining institutsional asoslari va rivojlanish tendensiyalari.....265

БЕКЧАНОВ ДАВРОН МАШАРИПОВИЧ

Худудларни иқтисодий ривожлантиришда ижтимоий капиталнинг ўрни: социологик ёндашув.....274

RAJABOV ALIBEK XUSHNUDBEKOVICH

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini boshqarishdagi zamonaviy yondashuvlar.....283

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON JALOLIDIN QIZI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning tartibga solish mexanizmlari va hududiy farqlar: O'zbekiston misolida.....290

XIDIROV ALIMARDON DAGAROVICH

Hududlarda tog'turizmini rivojlantirishda investitsiyalarning roli va undan samarali foydalanish muammolari.....296

SHODIYEV MURODJON BAKIROVICH

Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosatini shakllantirishning nazariy-huquqiy asoslari (1-sonli BHMS asosida).....308

TURSUNOVA NAZOKAT TOLIBJONOVNA

Hududiy innovatsion faollikni oshirishning konseptual asoslari va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri (Buxoro viloyati misolida).....316

RAXMANOV MUXAMMADELDOR

Risklarni boshqarishning konseptual asoslari.....323

IKROMOV ELYOR IBODULLOYEVICH

Hududlarda transport xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....330

TURSUNOVA NAZOKAT TOLIBJONOVNA

Hududiy innovatsion tizimlar samaradorligini oshirish: global tajriba va milliy imkoniyatlar tahlili.....337

YUSUPOV ABBOSXON ALIYEVICH

Kichik biznes subyektlari faoliyatida inson resurslaridan foydalanish va kadrlar boshqaruvi mexanizmlari tahlili.....348

MUROTOSIMOV SHOXRUX ABDISALIMOVICH

Qurilish korxonalarida korporativ ijtimoiy boshqaruvning nazariy modellari, asosiy prinsiplari va boshqaruv instrumentlari.....357

ТОПИЛДИЕВ СОХИБЖОН РАХИМЖАНОВИЧ

Ўзбекистон иқтисодиётида ИТ-парклар ва сунъий интеллект орқали ривожлантириш йўллари.....368

SOATOV YUSUF XO'JAYOR O'G'LI

Turkiy davlatlar o'rtasida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....377

DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI

Sun'iy intellekt asosida moliyaviy firibgarlikni aniqlash tendensiyalari.....383

BABAXOLOV SHERZOD BAXTIYOROVICH

Iqlimga mos qishloq xo'jaligi innovatsiyalarini qabul qilishda institutsional to'siqlar: Ўzbekiston qishloq xo'jaligi misolida.....390

ДИНАРА ТАШЕВНА ГАФАРОВА

Влияние структурных реформ на устойчивость экономического роста Узбекистана.....398

NARMETOVA DILAFRUZ AZAMATOVNA

Mintaqaviy rivojlanishda iqtisodiy salohiyatdan foydalanish va raqobatbardoshlikni ta'minlashning nazariy asoslari (Xorazm viloyati misolida).....405

TOSHOV MIRZABEK HAKIMOVICH

Buxoro viloyatida sanoat tarmoqlarini takomillashtirish va diversifikatsiya qilish masalalari.....413

RAXMONQULOVA NAFISA OLIMJON QIZI

Hududlar iqtisodiyotining tarkibiy transformatsiyasi: baholash usullari va ko'rsatkichlari.....420

ISMATULLAYEV JASUR ANVAROVICH

Mintaqalarni barqaror rivojlantirishda investitsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....427

BOZOROVA MADINA RAXMAT QIZI

Ta'lim xizmatlari bozorini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi....434

INOBATOV ABROR BOSHLAROVICH

Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish zarurati va uning bank faoliyati samaradorligiga ta'siri.....441

ABDUVALIYEV ZAFAR MAXMUDOVICH

Raqamli transformatsiya sharoitida qurilish obyektlari qiymatini aniqlash jarayonini optimallashtirishning zamonaviy usullari.....450

XANNAROV KOMILJON KARIMOVICH

Davlat byudjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlash xarajatlarini ta'minlashning nazariy asoslari.....461

ОЧИЛОВ БАХТИЁР МУМИНЖОНОВИЧ

Инновационные стратегии корпоративного управления в цифровой трансформации железнодорожного транспорта.....467

БЕГЛАЕВ УЧҚУН ХУРРАМОВИЧ

Балиқчиликни ривожлантиришда инновацион технологиялардан фойдаланишни такомиллаштириш.....478

МЫРЗАЕВ БАТЫР ЖИЕНБАЕВИЧ, ДЖУМАНИЯЗОВ УБИНЯЗ ИСМАЙЛ УЛЫ

Сельское хозяйство и перспективы социально-экономического развития Узбекистана.....488

SUNATOV JO'RABEK TURG'UNBEK O'G'LI

Aholiga aloqa va axborotlashtirish xizmatlari rivojlanish dinamikasining statistik tahlili.....500

ДЖАМАЛОВА АСАЛЬ САЙДУВАЛИЕВНА

Научно-методический подход к классификации цепочек добавленной стоимости в овощеводстве.....508

SAMADQULOV MUHAMMADJON

O'zbekistonda milliy iqtisodiyot innovatsion salohiyatidan foydalanish omillarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash.....516

ASADOV BAXSHULLO XASANBOY O'G'LI

Mehmon uylari tashkil etishning oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rni va turizm sohasidagi ahamiyati.....528

XAZRATKULOV O'KTAMJON XIKMATULLAYEVICH

Raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularning moliya tizimidagi o'rni.....534

BOROTOV SHAROFIDDIN JUMAQUL O'G'LI

Zamonaviy ekonometrik modellar asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlash usullari.....546

IBRAGIMOVA MADINA ISMOILOVNA

Xizmat ko'rsatish tarmoqlarida innovatsion xizmatlar orqali raqobatbardoshlikni ta'minlashning metodologik asoslari.....555

ABDULLAYEVA SHAHLOXON KAMOLADDIN QIZI

Raqamli bank xizmatlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....562

BOBOJONOVA MADINA JUMANIYOZ QIZI

Hududlarda agroturizmni rivojlantirish konsepsiyasining evolyutsiyasi va ilmiy-nazariy asoslari.....567

URAZMATOV JONIBEK MUSURMANOVICH

Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish jarayonida soliq tafovutini (VAT GAP) aniqlash va baholash usullari.....574

SODIQOVA NIGORA TURAYEVNA

Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda yengil sanoat tarmog'i imkoniyatlari (Buxoro viloyati misolida).....583

YAHYOXONOV NIYOZXO'JA BAHROIL O'G'LI

Savdo korxonalarida raqamli marketingdan foydalanish tahlili (Amazon va Alibaba kompaniyalari misolida).....589

IBRAGIMOVA MADINA ISMOILOVNA

Xizmat ko'rsatish tarmoqlarida innovatsion rivojlanishning konseptual asoslari.....602

XALIKOVA LOLA NAZAROVNA

Ijtimoiy himoya sotsial - iqtisodiy munosabat sifatida.....608

ULASHOVA ZARNIGOR BOTIRALI QIZI

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar.....615

URALOV ELIBOY OMONOVICH

Buxoro viloyati sanoatini hududiy tarkibini takomilashtirish yo'llari.....623

ИБРАГИМОВА МАДИНА ИСМОИЛОВНА, САНГИРОВ БАХТИЁР БАХОДИРОВИЧ

Проблемы обеспечения экологической эффективности и внедрения «Зеленых» инноваций в сфере услуг.....629

ESHMAXMATOV ULUG'BEK ERKIN O'G'LI

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari.....636

RAHIMBOYEV MUXTORBEK IKROM O'G'LI, QIYOMOV SOHIBJON

O'zbekiston Respublikasining demografik tendensiyalari va prognozi.....644

ХАЛИКОВ СУЮН РАВШАНОВИЧ, КУЧКОРОВ ОТАБЕК СОБИРЖОН УГЛИ

Улучшение инновационных технологий и его эффективности в развитии рыбного хозяйства.....655

BEKBERGENOV G'AYRAT SHUXRATOVICH

Raqamli transformatsiyaning mintaqaviy tadbirkorlik samaradorligiga ta'sirini baholash: raqamli tayinlik indeksi asosida.....668

DILDORA YULDASHEVA

Agroklaster faoliyatida asosiy fond qaytimining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati.....674

G'AYBULLAYEV SARVAR O'KTAM O'G'LI

Mintaqalarda chakana savdo rivojlanish darajasini baholash usullari va mezonlari.....683

NOSIROVA SANOBAR SABIRDJANOVNA

Qishloq hududlarida agroturizmni rivojlantirish: talab va raqamli yondashuvlar.....696

KUDRATOV DILSHOD SHARIPOVICH

O'zbekiston fond bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining likvidliligini oshirishning strategik yo'nalishlari.....704

SOATMO'MINOVA ZARNIGOR OLIMJON QIZI

Surxondaryoda mehnat bozori: rivojlanish tendensiyasining iqtisodiy va statistik tahlili.....714

MINTAQALARDA CHAKANA SAVDO RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI

G'AYBULLAYEV SARVAR O'KTAM O'G'LI

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: gaybullayevsarvar674@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida chakana savdo tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'рни va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida chakana savdo rivojlanish darajasini baholashning kompleks va ko'p omilli yondashuvi ishlab chiqilgan. Baholash tizimi beshta asosiy indikator – chakana savdo aylanmasi hajmi, aholi jon boshiga savdo aylanmasi, savdo korxonalari zichligi, savdo sohasiga investitsiyalar hajmi va savdo infratuzilmasi maydoni asosida shakllantirilgan. Tadqiqotda min–max normallashtirish usuli yordamida ko'rsatkichlarning nisbiy qiymatlari aniqlangan. Jizzax viloyati misolida olib borilgan hisob-kitoblar natijasida hududda chakana savdo tarmog'ining rivojlanish darajasi baholangan va mavjud muammolar hamda rivojlanish istiqbollari aniqlangan. Olingan natijalar hududlarda savdo infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni oshirish va iste'mol bozorini kengaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: chakana savdo, savdo aylanmasi, normallashtirish, iqtisodiy tahlil, hududiy rivojlanish, ko'rsatkichlar tizimi.

Аннотация. В данной статье исследуется роль и значение розничной торговли в условиях рыночной экономики. В ходе исследования разработан комплексный многокритериальный подход к оценке уровня развития розничной торговой сети. Система оценки основана на пяти ключевых показателях: объем розничного товарооборота, товарооборот на душу населения, плотность торговых предприятий, объем инвестиций в сферу торговли и площадь торговой инфраструктуры. Для сопоставимости показателей применен метод нормализации min–max. На примере Джизакской области проведена оценка уровня развития розничной торговли, выявлены существующие проблемы и перспективы развития. Полученные результаты могут быть использованы при разработке научно обоснованных рекомендаций по развитию торговой инфраструктуры, повышению инвестиционной активности и расширению потребительского рынка.

Ключевые слова: розничная торговля, товарооборот, нормализация, экономический анализ, региональное развитие, система показателей.

Abstract. This article examines the role and importance of retail trade in a market economy. The study proposes a comprehensive multi-factor approach to assess the level of retail trade development. The evaluation system is based on five key indicators: retail turnover volume, retail turnover per capita, density of trade enterprises, investment in the trade sector, and trade infrastructure capacity. The min–max normalization method is applied to ensure comparability of indicators. Based on the case of Jizzakh region, the level of retail trade development is assessed, and existing challenges as well as development prospects are identified. The findings provide a basis for developing scientifically grounded recommendations aimed at improving trade infrastructure, increasing investment activity, and expanding the consumer market.

Keywords: retail trade, turnover, normalization, economic analysis, regional development, indicator system.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida chakana savdo tarmog'i mamlakat iqtisodiyotida muhim tarkibiy qismlardan biri sifatida qaralib, aholining iste'mol talabini qondirish, ichki bozorni barqaror rivojlantirish hamda hududlar iqtisodiy faolligini oshirishda bevosida bog'liqdir. Tadqiqotimiz davomida biz, chakana savdo tarmog'ining rivojlanish darajasini baholash jarayonlari statistik usullar orqali amalga oshirishni maqsad qilib oldik. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida chakana savdo rivojlanish darajasini aniqlash uchun biz tomonimizdan taklif etilayotgan ko'rsatkichlar tizimi kompleks va ko'p omilli baholash tamoyiliga asoslanadi. Bu kabi yondashuvimiz hududlar kesimida chakana savdo tarmog'ining rivojlanish darajasini yanada aniqroq baholash hamda uning iqtisodiy holatini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalarda chakana savdo rivojlanish darajasini baholash masalasi iqtisodiy tahlil, hududiy rivojlanish va savdo infratuzilmasini boshqarish bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu yo'nalish ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

Chakana savdo tizimining nazariy asoslari klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, savdo faoliyatining bozor mexanizmlari bilan uyg'unligi masalalari chuqur tahlil qilingan. Xususan, Adam Smith va Alfred Marshall asarlarida savdo va iste'mol bozorining muvozanat mexanizmlari yoritib berilgan [1].

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda chakana savdo rivojlanishini baholashda ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Philip Kotler tomonidan ishlab chiqilgan marketing konsepsiyalarida chakana savdo samaradorligini baholashda iste'molchi xulqi, talab elastikligi va xizmat sifati asosiy mezonlar sifatida qaraladi [2].

Hududiy iqtisodiyot nuqtai nazaridan chakana savdo rivojlanishini baholash masalalari Paul Krugman tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, savdo obyektlarining hududiy joylashuvi va transport xarajatlari chakana savdo rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [3].

Chakana savdo ko'rsatkichlarini statistik baholash usullari xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ishlab chiqilgan. Jumladan, World Bank va OECD tomonidan chakana savdo hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan savdo aylanmasi va savdo infratuzilmasi indeksleri asosiy baholash mezonlari sifatida tavsiya etilgan [4].

Shuningdek, UNCTAD hisobotlarida chakana savdo rivojlanish darajasini baholashda logistika samaradorligi, elektron savdo ulushi va xizmatlar sifati kabi ko'rsatkichlar ham muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan [5].

MDH davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda chakana savdo rivojlanishini baholashning kompleks indeks usullari keng qo'llaniladi.

Unga ko'ra, savdo hajmi, savdo obyektlari soni, bandlik darajasi va investitsiya hajmi yagona integrallashgan ko'rsatkichga birlashtiriladi [6].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham ushbu yo'nalishda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, respublika hududlarida chakana savdo rivojlanish darajasini baholashda hududiy farqlarni aniqlash, savdo infratuzilmasini rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan yondashuvlar ishlab chiqilgan [7].

Bundan tashqari, so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana savdoni baholash usullari ham takomillashmoqda. Elektron tijorat, onlayn savdo platformalari va raqamli to'lov tizimlari chakana savdo rivojlanishining muhim ko'rsatkichlariga aylanmoqda [8].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar asosida aytish mumkinki, mintaqalarda chakana savdo rivojlanish darajasini baholash ko'p omilli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu esa iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy ko'rsatkichlarni birgalikda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqalarda chakana savdo rivojlanish darajasini baholash nazariy yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Metodologiya asosini tizimli va kompleks yondashuv tashkil etib, chakana savdo iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy omillar birligi sifatida qaraladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalaniladi:

tizimli tahlil – chakana savdo tizimining tarkibiy elementlari va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganish;

taqqoslash usuli – hududlar kesimida rivojlanish darajasidagi farqlarni aniqlash;

ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish – savdo aylanmasi, aholi jon boshiga savdo hajmi, savdo obyektlari zichligi kabi mezonlar asosida baholash;

integral indeks yondashuvi – turli ko'rsatkichlarni yagona umumlashtiruvchi ko'rsatkichga birlashtirish.

Mazkur metodologiya chakana savdo rivojlanishini kompleks baholash, hududiy nomutanosibliklarni aniqlash hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimizning birinchi bosqichida taklif etilgan ko'rsatkichlar tizimi asosida tanlangan indikatorlarning me'yorlashtirilgan qiymatlari hisoblab chiqdik. Hisoblash jarayonida ularning umumlashtirilgan o'rtacha ko'rsatkichlari aniqlab olindi. Ushbu yondashuvimiz chakana savdo tarmog'ining rivojlanish darajasini kompleks tarzda baholash imkonini beradi.

Jizzax viloyati misolida chakana savdo rivojlanish darajasini **(CSRD)** aniqlash beshta asosiy komponent asosida shakllantirildi. Ushbu komponentlar chakana

savdo faoliyatining turli iqtisodiy jihatlarini aks ettirib, savdo tarmog'ining rivojlanish darajasini tizimli ravishda baholashga yordam beradi.

Mazkur komponentlar quyidagilardan iborat:

Chakana savdo aylanmasi hajmi (**SA**) – hududda chakana savdo orqali realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini ifodalaydi;

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo aylanmasi (**ASA**) – savdo hajmining aholi soniga nisbatan darajasini ko'rsatadi;

Savdo korxonalari zichligi ko'rsatkichi (**KZ**) – ma'lum hudud yoki aholi soniga nisbatan savdo korxonalari sonini aks ettiradi;

Savdo sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (**SI**) – savdo infratuzilmasini rivojlantirish uchun kiritilgan kapital qo'yilmalarni tavsiflaydi;

Savdo infratuzilmasining maydon sig'imi (**SM**) – savdo faoliyatini amalga oshirish uchun mavjud savdo maydonlari hajmini ifodalaydi.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida tanlab olingan ko'rsatkichlarning statistik qiymatlari aniqlanib, ular tegishli formulalar asosida hisoblab chiqiladi hamda ularning iqtisodiy mazmuni tahlil qilinadi. Har bir ko'rsatkichni alohida ko'rib chiqish chakana savdo tarmog'ining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni yanada chuqurroq o'rganish hamda ularning umumiy rivojlanish darajasiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Chakana savdo rivojlanish darajasini baholash uchun tanlab olingan asosiy ko'rsatkichlarning har biri bo'yicha hisoblash jarayonlarini ketma-ketlikda ko'rib chiqdik.

1. Chakana savdo aylanmasi hajmi (**SA**) ko'rsatkichi hududda chakana savdo orqali realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich chakana savdo tarmog'ining iqtisodiy faoliyati darajasini tavsiflovchi asosiy indikatorlardan sanaladi. Chunki aynan ushbu ko'rsatkich orqali hududda tovarlar iste'moli hajmi, aholining xarid qobiliyati hamda savdo infratuzilmasining rivojlanganlik darajasini baholash mumkin. Chakana savdo aylanmasining o'sishi hududda iqtisodiy faollikning oshishi, aholi daromadlarining ko'payishi hamda savdo xizmatlari ko'lamining kengayib borayotganligini ko'rsatadi.

Odatda, chakana savdo aylanmasi hajmining o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$SA = \sum(P_i * Q_i) \quad (1)$$

bu yerda, **SA** – hududdagi chakana savdo aylanmasi;

P_i – **i**-turdagi tovarning chakana narxi;

Q_i – sotilgan tovar miqdori.

Quyida keltirilgan 1-jadval chakana savdo tarmog'i rivojlanish darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan chakana savdo aylanmasi hajmi (**SA**) ko'rsatkichi asosida Jizzax viloyati holatini ushbu yo'nalishda yuqori natijalarga erishgan hudud bilan taqqoslab tahlil qilish imkonini beradi. Chakana savdo aylanmasi hajmining eng yuqori qiymati etalon ko'rsatkich sifatida qabul qilinib, mazkur sohada erishilishi mumkin bo'lgan maksimal rivojlanish darajasini

ifodalaydi. Tahlilimiz jarayonida eng past qiymat ham hisobga olinib, ko'rsatkichlarni taqqoslash va baholash uchun asos qilib olindi.

Keltirilgan etalon va minimal qiymatlar Jizzax viloyatining chakana savdo aylanmasi hajmi ko'rsatkichini baholash hamda uni normallashtirish jarayonida mezon sifatida foydalanildi. Bunda etalon qiymat aniq bir ma'muriy hududni emas, balki chakana savdo tarmog'ining nazariy jihatdan erishilishi mumkin bo'lgan optimal rivojlanish darajasini ifodalovchi maqsadli ko'rsatkich sifatida qaraldi. Shu asosda Jizzax viloyati ko'rsatkichi minimal va maksimal qiymatlar oralig'ida baholanib, uning chakana savdo faoliyati rivojlanish darajasini aniqlash imkoniyati yaratildi.

1-jadval

Chakana savdo rivojlanish darajasini baholashda chakana savdo aylanmasi hajmi (SA) ko'rsatkichi va uning qiymati

Ko'rsatkichlar	Chakana savdo aylanmasi hajmi
Belgilanishi	SA
Tavsifi	Hududda chakana savdo orqali sotilgan tovarlarning umumiy qiymati (mlrd so'm)
Eng past hudud uchun ko'rsatkich qiymati	7 043 mlrd so'm
Eng yaxshi hudud uchun ko'rsatkich qiymati	18 900 mlrd so'm
Jizzax viloyati uchun ko'rsatkich qiymati	13 086,0 mlrd so'm

Manba: Ilmiy izlanishlar asosida muallif hisob natijalari.

1-jadval ma'lumotlari asosida Jizzax viloyati uchun chakana savdo aylanmasi hajmi ko'rsatkichining normallashtirilgan qiymati aniqlab olindi. Bunda ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash imkoniyatini ta'minlash hamda ularning nisbiy darajasini aniqlash maqsadida min-max normallashtirish usulidan foydalanildi. Mazkur usul ko'rsatkichlarning minimal va maksimal qiymatlari oralig'ida ularni nisbiy ko'rinishga keltirish imkonini beradi.

Shu asosda chakana savdo aylanmasi hajmi ko'rsatkichining normallashtirilgan qiymati quyidagi formula orqali hisoblab chiqildi:

$$SA_n = \frac{SA_i - SA_{min}}{SA_{max} - SA_{min}} \quad (2)$$

bu yerda, SA_n – chakana savdo aylanmasi hajmining normallashtirilgan qiymati;

SA_i – Jizzax viloyatining chakana savdo aylanmasi hajmi;

SA_{max} – etalon hudud uchun eng yuqori chakana savdo aylanmasi qiymati;

SA_{min} – eng past chakana savdo aylanmasi qiymati.

Joriy yilda Jizzax viloyatida chakana savdo aylanmasi hajmi 13 086,0 mlrd so'mni tashkil etgan. Minimal qiymat sifatida qabul qilingan 7 043 mlrd so'm hamda etalon hudud uchun belgilangan maksimal 18 900 mlrd so'm ko'rsatkichlari asosida min-max normallashtirish usuli yordamida hisob-kitoblar amalga oshirildi. Natijada olib borilgan hisob-kitoblar Jizzax viloyati uchun

chakana savdo aylanmasi hajmi ko'rsatkichining normallashtirilgan qiymati **0,51** ga teng ekanligini ko'rsatdi.

Hisob natijalarimiz viloyatda chakana savdo aylanmasi nisbatan barqarorligini ko'rsatmoqda. Etalon hudud bilan taqqoslaganda savdo aylanmasi hajmini yanada oshirish, savdo infratuzilmasini kengaytirish hamda aholining xarid qobiliyatini oshirish orqali ushbu ko'rsatkichni yanada yaxshilash imkoniyatlari mavjudligini ham ko'rsatmoqda.

2. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo aylanmasi (ASA) ko'rsatkichi chakana savdo aylanmasi hajmining hudud aholisi soniga nisbati orqali aniqlanib, iste'mol bozori rivojlanish darajasini baholashda muhim iqtisodiy indikator hisoblanadi. Ko'rsatkich hudud aholisi tomonidan iste'mol qilinayotgan tovarlar hajmini hamda aholining xarid faolligini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkich orqali savdo tarmog'ining aholi ehtiyojlarini qondirish darajasi hamda hududiy iste'mol bozorining rivojlanganlik holatini baholash mumkin.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo aylanmasi (ASA) o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$ASA = \frac{SA}{N} \quad (3)$$

bu yerda, **ASA** – hudud uchun aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo aylanmasi;

SA – hududdagi chakana savdo aylanmasi;

N – hudud aholisi soni;

Aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasining oshib borishi, odatda, hududda aholining real daromadlari ortib borayotganini, iste'mol faolligi kuchayayotganini hamda savdo xizmatlari ko'lamining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich hududda savdo tarmog'i faoliyati samaradorligini hamda aholining iste'mol darajasini baholashda samarali natija beradi. Yuqorida chakana savdo aylanmasi hajmi korsatkichini aniqlashda amalga oshirilgan ketma-ketlik kabi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo aylanmasi korsatkichi uchun ham jadval hosil qilindi va hisob jarayonlarini amalga oshirdik (2-jadval).

2-jadval

Chakana savdo rivojlanish darajasini baholashda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo aylanmasi (ASA) ko'rsatkichi

Ko'rsatkichlar	Aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi
Belgilanishi	ASA
Tavsifi	Chakana savdo aylanmasining hudud aholisi soniga nisbati (ming so'm)
Eng past hudud uchun ko'rsatkich qiymati	5 456,3 ming so'm
Eng yaxshi hudud uchun ko'rsatkich qiymati	12 800,5 ming so'm
Jizzax viloyati uchun ko'rsatkich qiymati	8 430,6 ming so'm

Manba: Ilmiy izlanishlar asosida muallif hisob natijalari.

Jizzax viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo aylanmasi 8 430,6 ming so'mni tashkil qilgan. Minimal qiymat 5 456,3 ming so'm, maksimal qiymat esa 12 800,5 ming so'm deb qabul qildik. Ushbu qiymatlar asosida Jizzax viloyati uchun aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi ko'rsatkichining normallashtirilgan qiymati hisob-kitobimiz davomida **0,41** ga teng ekanligi aniqlandi.

Aniqlangan natija Jizzax viloyatida aholining iste'mol faolligi nisbatan barqaror darajada shakllanganini ko'rsatadi. Savdo xizmatlari ko'lamini kengaytirish hamda iste'mol bozorini rivojlantirish orqali ushbu ko'rsatkichni yanada yaxshilash imkoniyatlari mavjudligini ham ko'rsatmoqda.

3. Savdo korxonalari zichligi ko'rsatkichi (KZ) hududda faoliyat yuritayotgan savdo korxonalari sonining aholi soniga nisbati orqali aniqlandi. Chakana savdo infratuzilmasining rivojlanganlik darajasini ifodalovchi muhim iqtisodiy indikatorlardan sanaladi. Savdo korxonalari zichligi ko'rsatkichi hududda savdo xizmatlari ko'rsatish imkoniyatlari, savdo obyektlari tarmog'ining kengligi hamda aholining savdo xizmatlaridan foydalanish darajasini baholash imkonini beradi. Savdo korxonalari zichligining oshib borishi, hududda savdo infratuzilmasining rivojlanib borayotganini, tadbirkorlik faoliyati kengayayotganini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich savdo tarmog'i rivojlanishining hududiy muvozanatini hamda savdo obyektlarining aholi ehtiyojlariga mos ravishda joylashganlik darajasini baholashda muhim.

Savdo korxonalari zichligi ko'rsatkichining o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$KZ = \frac{K}{N} * 100 \quad (4)$$

bu yerda, **KZ** – savdo korxonalari zichligi ko'rsatkichi;

K – hududda faoliyat yuritayotgan savdo korxonalari soni;

N – hudud aholisi soni.

Tadqiqotimiz davomida Jizzax viloyati holatini ushbu yo'nalishda ko'rsatkich qiymatlari aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Chakana savdo rivojlanish darajasini baholashda savdo korxonalari zichligi (KZ) ko'rsatkichi

Ko'rsatkichlar	Savdo korxonalari zichligi
Belgilanishi	KZ
Tavsifi	Savdo korxonalari sonining hudud aholisi soniga nisbati (har 1000 aholiga)
Eng past hudud uchun ko'rsatkich qiymati	1,5 ta
Eng yaxshi hudud uchun ko'rsatkich qiymati	5,0 ta
Jizzax viloyati uchun ko'rsatkich qiymati	2,89 ta

Manba: Ilmiy izlanishlar asosida muallif hisob natijalari.

3-jadval ma'lumotlari asosida Jizzax viloyati uchun savdo korxonalari zichligi ko'rsatkichining normallashtirilgan qiymati aniqlandi. O'tkazilgan hisob-kitoblar natijalarimizga ko'ra, viloyatda savdo korxonalari zichligi 2,89 ta ni tashkil etagani aniqlandi. Tahlilimiz jarayonida minimal qiymat 1,5 ta, maksimal qiymat esa 5 ta deb qabul qilindi. Mazkur qiymatlar asosida Jizzax viloyati uchun savdo korxonalari zichligi ko'rsatkichining normallashtirilgan qiymati 0,40 ga teng ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalar Jizzax viloyatida savdo infratuzilmasi ma'lum darajada shakllanganligini ko'rsatadi. Etalon hudud bilan taqqoslaganda savdo obyektlari tarmog'ini yanada kengaytirish, yangi savdo markazlari va savdo xizmatlari obyektlarini tashkil etish orqali ushbu ko'rsatkichni yanada yaxshilash imkoniyatlari mavjudligini ham ko'rsatmoqda.

4. Savdo sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (SI) ko'rsatkichi chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar miqdorini ifodalaydi. Odatda bu ko'rsatkich viloyatda savdo infratuzilmasining kelajakdagi rivojlanish salohiyatini tavsiflashda samarali bo'ladi. Bu ko'rsatkich hududda savdo obyektlarini modernizatsiya qilish, yangi savdo markazlarini barpo etish, logistika tizimini takomillashtirish hamda savdo xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan.

Savdo sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining ortib borishi, hududda chakana savdo infratuzilmasining modernizatsiya qilinayotganini, savdo tarmog'ining kengayib borayotganini anglatadi.

Savdo korxonalari zichligi ko'rsatkichining o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$SI = \sum I_i \quad (5)$$

SI – hududda savdo sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar yig'indisi.

I_i – savdo infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi;

Quyida 4-jadval savdo sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (SI) ko'rsatkichi asosida Jizzax viloyati holatini yuqori natijalarga erishgan hudud bilan taqqoslash imkonini beradi. Yuqoridagilar kabi jadvalda eng yuqori qiymat etalon ko'rsatkich sifatida qabul qilinib, savdo tarmog'ining maksimal rivojlanish darajasini ifodalaydi. Eng past qiymat ham hisobga olinib, ko'rsatkichlarni baholash va taqqoslash uchun asos sifatida foydalanildi.

Hisob-kitob natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, Jizzax viloyatida savdo sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 1800 mlrd so'mni tashkil etib, minimal qiymat 500 mlrd so'm, maksimal qiymat esa 2500 mlrd so'm deb qabul qilindi. Mazkur qiymatlar asosida amalga oshirilgan normallashtirish natijasida Jizzax viloyati uchun savdo sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar ko'rsatkichining normallashtirilgan qiymati **0,65** ga teng ekanligi keltirib chiqarildi.

Bu natija viloyatda chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi nisbatan yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, savdo infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi savdo obyektlarini barpo etish hamda savdo xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan

investitsiya faoliyatini yanada kengaytirish imkoniyatlari ham mavjudligini ko'rsatmoqda.

4-jadval

Chakana savdo rivojlanish darajasini baholashda savdo sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (SI) ko'rsatkichi

Ko'rsatkichlar	Savdo sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar
Belgilanishi	SI
Tavsifi	Chakana savdo sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (mlrd so'm)
Eng past hudud uchun ko'rsatkich qiymati	500 mlrd so'm
Eng yaxshi hudud uchun ko'rsatkich qiymati	2500 mlrd so'm
Jizzax viloyati uchun ko'rsatkich qiymati	1800 mlrd so'm

Manba: Ilmiy izlanishlar asosida muallif hisob natijalari.

Savdo infratuzilmasining maydon sig'imi (SM) ko'rsatkichi hududda faoliyat yuritayotgan savdo obyektlarining umumiy savdo maydoni hajmini ifodalaydi. Savdo infratuzilmasining maydon sig'imi ko'rsatkichi savdo xizmatlari ko'rsatish imkoniyatlari kengligini, savdo obyektlari tarmog'ining hududiy joylashuvi hamda aholiga xizmat ko'rsatish quvvatini baholash imkonini beradi.

Savdo maydonining kengayib borishi, hududda savdo infratuzilmasi rivojlanayotganini, yangi savdo obyektlari tashkil etilayotganini ko'rsatmoqda.

Savdo infratuzilmasining maydon sig'imi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$SM = \frac{S}{N}$$

SM – Savdo infratuzilmasining maydon sig'imi;

S – hududdagi savdo obyektlarining umumiy savdo maydoni;

N – hudud aholisi soni.

5-jadval chakana savdo tarmog'i rivojlanish darajasini baholashda savdo infratuzilmasining maydon sig'imi (SM) ko'rsatkichi asosida Jizzax viloyati holatini ushbu yo'nalishda yuqori natijalarga erishgan hudud bilan taqqoslash mumkin.

Savdo infratuzilmasining maydon sig'imi ko'rsatkichi ko'pincha hudud aholisi soniga nisbatan hisoblanib, savdo obyektlari maydonining aholi ehtiyojlariga mosligini baholash imkonini beradi. Ayrim tadqiqotlarda ushbu ko'rsatkich hududdagi savdo maydonining aholi soniga nisbati orqali aniqlanadi. Bunday yondashuv savdo infratuzilmasining aholiga ta'minlanganlik darajasini tavsiflashga maqsadga muvofiq. Biroq ilmiy adabiyotlarda savdo infratuzilmasining maydon sig'imini mutlaq ko'rsatkich sifatida, ya'ni hududdagi savdo obyektlarining umumiy savdo maydoni orqali baholash usuli ham keng

qo'llaniladi. Bu kabi yondashuv hududda mavjud savdo infratuzilmasining real hajmini va uning iqtisodiy salohiyatini aniqroq aks ettirishda qulaydir.

5-jadval

Chakana savdo rivojlanish darajasini baholashda savdo infratuzilmasining maydon sig'imi (SM) ko'rsatkichi

Ko'rsatkichlar	Savdo infratuzilmasining maydon sig'imi
Belgilanishi	SM
Tavsifi	Hududda faoliyat yuritayotgan savdo obyektlarining umumiy savdo maydoni (ming m ²)
Eng past hudud uchun ko'rsatkich qiymati	200 ming m ²
Eng yaxshi hudud uchun ko'rsatkich qiymati	900 ming m ²
Jizzax viloyati uchun ko'rsatkich qiymati	620 ming m ²

Manba: Ilmiy izlanishlar asosida muallif hisob natijalari.

Tadqiqotimiz doirasida Jizzax viloyatida savdo infratuzilmasining maydon sig'imi ko'rsatkichi hududdagi savdo obyektlarining umumiy savdo maydoni asosida baholandi. Chunki ushbu hududda savdo infratuzilmasining rivojlanish darajasini aniqlashda uning mutlaq hajmi juda muhim ko'rsatkichdir. Shunga ko'ra savdo infratuzilmasining maydon sig'imi ko'rsatkichi aholi soniga bog'lanmagan holda hisobladik.

Hisob-kitob natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, Jizzax viloyatida savdo infratuzilmasining maydon sig'imi 620 ming m² ni tashkil etgan. Minimal qiymat 200 ming m², maksimal qiymat esa 900 ming m² deb qabul qilindi. Aniqlangan qiymatlar asosida amalga oshirilgan normallashtirish natijasida Jizzax viloyati uchun savdo infratuzilmasining maydon sig'imi ko'rsatkichining qiymati **0,60** ga teng ekanligini aniqlandi.

Olingan natija Jizzax viloyatida savdo infratuzilmasi nisbatan rivojlanganligini hamda aholiga savdo xizmatlari ko'rsatish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Viloyatda savdo obyektlari maydonini yanada kengaytirish, zamonaviy savdo markazlarini tashkil etish imkoniyatlari yetarlicha ekanligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida Chakana savdo rivojlanish darajasini aniqlash jarayonida barcha komponentlar innovatsion rivojlanish jarayonida bir xil ahamiyat kasb etmasligi inobatga olindi. Shu sababli ko'rsatkichlarni baholashda ekspert baholariga asoslangan vaznli yondashuv qo'llanildi. Mazkur metod orqali har bir komponentning nisbiy ahamiyati hisobga olinib, integral ko'rsatkich aniqlab chiqildi. Hisoblash natijalari esa 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

**Jizzax viloyatida chakana savdo rivojlanish darajasi (CSRD) indeksini
baholash ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich qiymati	Ekspert so'rovi natijalari	Ekspert so'rovi tahlili
1	Chakana savdo aylanmasi hajmi (SA)	0,51	0,30	Chakana savdo tarmog'ining umumiy iqtisodiy hajmini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.
2	Aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi (ASA)	0,41	0,25	Aholining iste'mol faolligi va xarid qobiliyatini aks ettiruvchi muhim indikator hisoblanadi.
3	Savdo korxonalari zichligi (KZ)	0,40	0,15	Savdo infratuzilmasining hududiy rivojlanganlik darajasini tavsiflaydi.
4	Savdo sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar (SI)	0,65	0,20	Savdo infratuzilmasining kelgusidagi rivojlanish salohiyatini belgilaydi.
5	Savdo infratuzilmasining maydon sig'imi (SM)	0,60	0,10	Savdo obyektlarining xizmat ko'rsatish quvvatini hamda savdo maydonlari rivojlanishini aks ettiradi.

Manba: Ilmiy izlanishlar asosida muallif hisob natijalari.

Chakana savdo rivojlanish darajasi indeksini aniqlash jarayonida quyidagi vaznli integral baholash formulasi qo'llanildi:

$$CSRD = \omega_1 \cdot SA + \omega_2 \cdot ASA + \omega_3 \cdot KZ + \omega_4 \cdot SI + \omega_5 \cdot SM$$

bu yerda, $\omega_1, \omega_2, \omega_3, \omega_4, \omega_5$ – mos ravishda chakana savdo rivojlanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning vazn koeffitsiyentlari hisoblanadi. Ular ekspert baholash natijalariga asoslanib aniqlangan. Har bir ko'rsatkichning umumiy indeks shakllanishidagi nisbiy ahamiyatini bildiradi. Vazn koeffitsiyentlari normallashtirilgan bo'lib, ularning umumiy yig'indisi 1 ga teng.

Yuqorida amalga oshirilgan hisob-kitoblar hamda ekspert baholash natijalaridan kelib chiqib, Jizzax viloyatida chakana savdo rivojlanish darajasi indeksi quyidagi ko'rinishda aniqlanadi:

$$CSRD = 0,30 \cdot 0,51 + 0,25 \cdot 0,41 + 0,15 \cdot 0,40 + 0,20 \cdot 0,65 + 0,10 \cdot 0,60$$

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanib, chakana savdo rivojlanish darajasi indeksi (CSRD) 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda normallashtirilgan ko'rsatkich sifatida shakllantirildi. Mazkur indeks qiymatlarini tizimli ravishda talqin qilish hamda hududlarda chakana savdo tarmog'ining rivojlanish darajasini aniqroq baholash maqsadida integral ko'rsatkichlar uchun

maxsus baholash mezonlari ishlab chiqildi. Indeks qiymatlarining iqtisodiy mazmunini ochib berish hamda ularni amaliy jihatdan tahlil qilish imkoniyatini kengaytirish maqsadida chakana savdo rivojlanish darajasini ifodalovchi baholash shkalasi taklif etildi. Mazkur baholash mezonlari quyidagi 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Chakana savdo rivojlanish darajasi indeksini (CSRD) baholash mezonlari

№	Integral indeks qiymati	Rivojlanish darajasi	Tavsifi
1	$0.00 \leq \text{CSRD} \leq 0.25$	Past daraja	Hududda chakana savdo infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan. Savdo obyektlari soni va xizmat ko'rsatish imkoniyatlari cheklangan.
2	$0.25 < \text{CSRD} \leq 0.50$	O'rtacha daraja	Savdo tarmog'i shakllanish jarayonida. Ayrim infratuzilmaviy elementlar rivojlangan. Savdo xizmatlari to'liq qamrovga ega emas.
3	$0.50 < \text{CSRD} \leq 0.75$	Barqaror rivojlanish darajasi	Hududda savdo infratuzilmasi nisbatan rivojlangan. Savdo xizmatlari kengayib bormoqda hamda aholining iste'mol ehtiyojlari barqaror ravishda qondirilmoqda.
4	$0.75 < \text{CSRD} \leq 1.00$	Yuqori rivojlanish darajasi	Chakana savdo tarmog'i yuqori darajada rivojlangan. Zamonaviy savdo infratuzilmasi shakllangan hamda iste'mol bozori faol rivojlanmoqda.

Manba: Ilmiy izlanishlar asosida muallif hisob natijalari.

Yuqorida keltirilgan mezonlarga asoslanib, Jizzax viloyatida chakana savdo rivojlanish darajasi indeksi **0,51** ga teng ekanligini aniqladik. Ushbu qiymat 0,51–0,75 intervaliga to'g'ri keladi. Bundan viloyatda chakana savdo tarmog'i barqaror rivojlanish bosqichida ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bu esa hududda savdo infratuzilmasi shakllanganligini, savdo xizmatlari ko'lami kengayib borayotganini hamda aholining iste'mol talabi nisbatan to'liq qondirilayotganini bildiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Jizzax viloyatida chakana savdo infratuzilmasini yanada takomillashtirish, yangi savdo obyektlarini barpo etish, savdo sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmini kengaytirish hamda zamonaviy savdo texnologiyalarini joriy etish orqali mazkur ko'rsatkichni yuqori bosqichga ko'tarish imkoniyatlari mavjud. Ushbu chora-tadbirlar hududda iste'mol bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi bilan birga, chakana savdo



tarmog'i faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. – London: 1776.
2. Kotler P., Keller K. *Marketing Management*. – Pearson Education, 2016.
3. Krugman P. *Geography and Trade*. – MIT Press, 1991.
4. World Bank. *World Development Indicators*. – Washington DC, 2022.
5. UNCTAD. *Digital Economy Report*. – Geneva, 2021.
6. Ivanov V.V. *Regional Economics and Retail Development*. – Moscow: Nauka, 2019.
7. Karimov B.X. *Hududiy iqtisodiyot va savdo infratuzilmasi*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
8. OECD. *Retail Market Structure and E-commerce Development*. – Paris, 2022.
9. Rasulov A.A. *Chakana savdo statistikasi va tahlili*. – Toshkent, 2021.

